



UDK: 101.02.14.09-07.3 (01-12)

Elbek JABBOROV,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: jabborov.elbek880@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, DSc B. Omonov taqrizi asosida

MILLIY MENTALITET VA YOSHLAR INFANTILIZMI

Аннотация

Ushbu maqolada milliy mentalitet tushunchasi, uning jamiyatda shakllanish omillari hamda yoshlarning psixologik rivojlanishida tutgan o'rnini tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy yoshlar orasida infantilizatsiya jarayonining vujudga kelish sabablari, uning ijtimoiy va ma'naviy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Milliy mentalitet, yoshlar, infantilizm, psixologik rivojlanish, qadriyatlar, ijtimoiy omillar, ma'naviyat, mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ И ИНФАНТИЛИЗМ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье анализируется понятие национального менталитета, факторы его формирования в обществе, а также его роль в психологическом развитии молодежи. Кроме того, рассматриваются причины возникновения процесса infantilization среди современной молодежи, а также его социальные и духовные аспекты.

Ключевые слова: Национальный менталитет, молодежь, infantilizm, психологическое развитие, ценности, социальные факторы, духовность, ответственность, самостоятельное принятие решений.

NATIONAL MENTALITY AND YOUTH INFANTILISM

Annotation

This article analyzes the concept of national mentality, the factors influencing its formation in society, and its role in the psychological development of youth. Additionally, it examines the causes of the infantilization process among modern youth, along with its social and spiritual aspects.

Key words: National mentality, youth, infantilism, psychological development, values, social factors, spirituality, responsibility, independent decision-making.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy-ruhiy tarbiyasi, ularning ijtimoiy faolligi va shaxsiy mas'uliyatini oshirish masalasi jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday millatning kelajagi yosh avlodning ongiga singdirilgan qadriyatlarga, ularning hayotga qarashlari va jamiyatdagi faol ishtirokiga chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, milliy mentalitet tushunchasi yoshlarning dunyoqarashini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy mentalitet-bu xalqning asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlari, an'analari, turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy me'yorlarini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Mentalitet muayyan bir shaxs, millat yoki elatga xos tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy shart-sharoitlarda shakllanuvchi alohida ijtimoiy murakkab hodisadir. Mas'uliyat—muayyan kishi yoki shaxsning, avvalo, o'z oilasi, mahalla-ko'y, millati, davlati va jamiyat oldidagi burchi vazifasini, shaxsiy javobgarlik hissini chuqur anglash, muhim hayotiy masalalarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashdan iborat. Ayni paytda mas'uliyatni yuzaga kelishining obyektiv hamda subyektiv asoslari ham mavjud[1;78]. Infantil yoshlarda esa mas'uliyatsizlik, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikdan qochish holatlari namoyon bo'ladi. Yoshlar infantilizmini oldini olish uchun ularida milliy mentalitetni shakllantirish lozim.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan yangilandi. Ularning ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, jahon miqyosida raqobatbardosh

kadrlar sifatida voyaga yetkazish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq, mas'uliyatsizlik, hayotga yengil qarash kabi holatlarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Zero, yoshlar infantilizmi, ya'ni shaxsning ijtimoiy va psixologik jihatdan yetarli darajada mustaqil bo'lmashligi jamiyat barqarorligiga ham ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarida o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi"[2]. Bu fikr milliy mentalitet bilan yoshlar tarbiyasining o'zaro uzviy bog'liqligini, shuningdek, infantilizmning oldini olishda davlat siyosatining naqadar muhim ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Shu jihatdan, ushbu maqolada milliy mentalitetning yoshlar psixologiyasiga ta'siri, infantilizatsiya jarayonining vujudga kelish omillari, ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda milliy qadriyatlar asosida sog'lom, mas'uliyatli va mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek olimlaridan Axrorjon Yusupov, Sharopova Nigora Shirinovna, Toshieva Gulbaxor Esonboyevna, N.E. Soliyeva va X.I. Abdurahmonovlar, xorijiy olimlardan Shuxi Zeng, Fan Li, Peng Ding, Nida Itrat Abbasi, Guy Laban, Tamsin Ford, Peter B.

Jones, Hatice Gunes va boshqalar yoshlar orasida infantilizm va milliy mentalitet masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Masalan, N.E. Soliyeva va X.I. Abdurahmonovlar yoshlar siyosiy faolligi va ijtimoiylashuvda milliy-siyosiy mentalitetning o'zni haqida tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini milliy mentalitet va yoshlar psixologiyasini o'rganishga oid falsafiy, psixologik hamda sotsiologik nazariyalar tashkil etadi. Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiy-qiyyosiy tahlil, sotsiopsixologik kuzatuv, kontent-tahlil va empirik yondashuv usullaridan foydalanildi. Chunki milliy mentalitet – bu avlodlar o'rtasida o'tib kelayotgan qadriyatlar, ijtimoiy ong, urf-odat va an'analarning jamlanishi bo'lib, uni to'laqonli anglash uchun tarixiylik va qiyosiylik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologik yondashuvlarda, avvalo, milliy mentalitetning jamiyatdagi o'zini va uning yoshlar tarbiyasiga ta'siri tahlil qilindi. Shu maqsadda turli yosh toifalaridagi respondentlar o'rtasida suhbat va so'rovlarni o'tkazilib, ularning milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, ma'naviy hayotdagi o'zini hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari o'rganildi. Shuningdek, yoshlar orasida uchraydigan infantilizm belgilari – mas'uliyatdan qochish, qaror qabul qilishda ikkilanish, ijtimoiy faoliyatdan chetlashish kabi omillar psixologik kuzatuv asosida tahlil qilindi.

Kontent-tahlil metodidan foydalanib, yoshlar ongiga ta'sir etayotgan omillar, xususan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va global madaniy oqimlarning mazmuni o'rganildi[3]. Bu jarayonda yoshlar orasida milliy mentalitet bilan zid keladigan yot g'oyalar qanchalik tarqalayotgani aniqlanib, ularning infantilizm kuchayishiga sabab bo'layotgan jihatlari baholandi.

Tadqiqot jarayonida fenomenologik yondashuv ham qo'llanildi, ya'ni yoshlarning shaxsiy tajribasi va ularning o'ziga xos qarashlari to'g'ridan-to'g'ri anglab yetildi. Bu orqali milliy qadriyatlarni anglash darajasi bilan shaxsiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi. Shu bilan birga, statistik usullar yordamida yig'ilgan ma'lumotlar tizimlashtirildi va umumlashtirildi.

Metodologik asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari ham tayanch manba bo'lib xizmat qildi. Xususan, yoshlarda mustaqil fikrlash, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning nazariy poydevorini mustahkamladi.

Shunday qilib, mazkur metodologiya milliy mentalitet va yoshlar infantilizmini o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilish, mavjud muammolarni ilmiy asosda yoritish hamda ularga yechim topishda kompleks yondashuvni ta'minladi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar yoshlar ongida milliy mentalitet va infantilizm jarayonlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqlik ekanini ko'rsatdi. Avvalo, milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat bildirgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etgani aniqlandi. Ularning fikricha, oilaviy tarbiya, milliy urf-odatlar, kattalarga hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlar hayotiy qarorlar qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ayrim yoshlar orasida bu qadriyatlarga befarqlik yoki ularni zamonaviy hayot sharoitida ikkinchi darajali deb baholash holatlari ham kuzatildi.

Infantilizmga oid belgilar esa asosan qaror qabul qilish jarayonida yaqqol ko'rinadi. Tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarning muhim qismi mustaqil qaror qabul qilishdan ko'ra, ota-ona, do'stlar yoki boshqa yaqin kishilar fikriga suyanishini ma'lum qildi[4]. Bu holat shaxsiy mas'uliyatning yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi. Yana bir muhim jihat shuki, yoshlarning bir qismi ijtimoiy hayotdagi faoliyatdan

chetlashishga moyil bo'lib, o'z mas'uliyatini jamiyat zimmasiga yuklash xususiyatini namoyon etmoqda.

Kontent-tahlil natijalari ham mazkur holatni tasdiqlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, seriallar va turli axborot manbalarida yoshlar orasida individualizm, yengil hayot tarzi, mas'uliyatsizlik va chetdan yordam kutish g'oyalari targ'ib qilinayotgani aniqlangan. Bu esa yoshlar ongida milliy qadriyatlarining ta'sirini susaytirib, infantilizmga moyillikni kuchaytirayotgan omillardan biri sifatida baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitetni mustahkamlash, yoshlarda mas'uliyat hissini rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ularning psixologik barkamolligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois davlat siyosati doirasida yoshlarning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga qaratilgan keng ko'lamli tashabbuslarni yanada samarali amalga oshirish zarur.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitet yoshlar psixologiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy va madaniy me'yorlar yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyati, mas'uliyat hissi va jamiyatdagi faol ishtirokiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, yoshlar orasida infantilizmning turli shakllari – qaror qabul qilishda boshqalarga tayanish, mas'uliyatdan qochish va ijtimoiy faoliyatdan chetlashish – uchrayotgani kuzatildi. Bu holat yoshlarning milliy qadriyatlar bilan yetarlicha bog'lanmaganligi va zamonaviy madaniy oqimlarning salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitetni mustahkamlash orqali yoshlar orasida infantilizm belgilarini kamaytirish mumkin. Masalan, oila va ta'lim muassasalari tomonidan milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish, yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, davlat siyosatining yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari va dasturlari juda dolzarb ekanligi ochiq ko'rinadi.

Milliy mentalitet yoshlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omil bo'lib, u yoshlarning infantilizmi ko'rsatkichlarini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Shuning uchun yoshlarning yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun milliy qadriyatlar va zamonaviy tarbiya usullari o'rtasida muvozanat zarur.

Shuni ta'kidlash lozimki, yoshlar infantilizmi faqat psixologik muammo emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq hodisa hisoblanadi. Shu sababli, uning oldini olishda kompleks yondashuv talab etiladi. Jumladan, milliy mentalitetni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya tizimlarida innovatsion metodlarni joriy etish, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish kabi chora-tadbirlar samarali natija beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari boshqa ilmiy manbalar bilan ham muvofiqlikda: chet el va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yoshlarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida milliy qadriyatlarining ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Masalan, yoshlarning mas'uliyatini oshirish va infantilizmni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan pedagogik va psixologik yondashuvlar samarali natija berganligi qayd etilgan.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitetni mustahkamlash va yoshlarni ma'naviy barkamol, mas'uliyatli, mustaqil qaror qabul qiladigan shaxslar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu tadqiqot milliy mentalitet va yoshlar infantilizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar va an'analar yoshlarning psixologik rivojlanishida, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishida va mustaqil shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlar orasida infantilizmning turli belgilarining mavjudligi, xususan qaror qabul qilishda boshqalarga tayanish, ijtimoiy faoliyatdan chetlashish va mas'uliyatni kamaytirish holatlari qayd etildi. Bu holat yoshlarning milliy qadriyatlar bilan yetarlicha bog'lanmaganligi va zamonaviy madaniy oqimlarning salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitetni mustahkamlash orqali yoshlar orasida infantilizm belgilarini kamaytirish mumkin. Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati doirasida yoshlarning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan keng ko'lamli dasturlarni samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlarning psixologik barkamolligi milliy qadriyatlarni o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Oila, maktab, universitet va boshqa ta'lim muassasalari yoshlarni ijtimoiy va madaniy hayotga faol jalb qilishi, ularning mas'uliyat hissini shakllantirishi lozim. Bu esa nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyat barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Infantilizmning oldini olish bo'yicha ilgari surilgan tavsiyalar milliy mentalitetni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya tizimlarida innovatsion metodlarni joriy etish, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. Shu orqali yoshlar nafaqat mustaqil fikrlaydigan, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida shakllanishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yoshlar psixologiyasini milliy mentalitet nuqtai nazaridan chuqurroq tushunish va davlat siyosatini samarali yo'naltirish imkoniyatini beradi. Bu esa yosh avlodni mas'uliyatli, mustaqil va ma'naviy barkamol shaxslar sifatida tarbiyalash yo'lida samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ashirov A. O'zbek milliy mentaliteti haqida ba'zi mulohazalar. "O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix". Toshkent, 2004, –B. 78.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmoni
3. Karimov S. Yoshlar psixologiyasi va jamiyatdagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti. 2019 -B.45.
4. Levinson D. Developmental Psychology and Adolescent Behavior. London: Routledge. 2015.